

ORIENTAL UNIVERSITETI
PhD.03/27.09.2024.Ped.185.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ASLONOV MADAMIN MANSUROVICH

BUXORO JADIDLARINING MARIFATPARVARLIK FAOLIYATIDA
PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (PhD)

Content of Dissertation Abstract of Doctor of Pedagogical sciences (PhD)

Aslonov Madamin Mansurovich

Buxoro jadidlarining marifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyoti.....3

Aslanov Madamin Mansurovich

Прогресс педагогической мысли в марионеточной деятельности бухарских
джадидов

Aslonov Madamin Mansurovich

The development of pedagogical thought in the enlightenment activities of the
Bukhara Jadids.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

ORIENTAL UNIVERSITETI
PhD.03/27.09.2024.Ped.185.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ASLONOV MADAMIN MANSUROVICH

BUXORO JADIDLARINING MARIFATPARVARLIK FAOLIYATIDA
PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7322 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaitov Xamza Axmadovich

filologiya fanlari doktori(DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna

p.f.d. (DSc), professor

Mavlonov O'ktam Maxmasobirovich

t.f.d., professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oriental universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024 Ped.185.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ kuni soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100059, Toshkent shahri, Olmazor tumani Noraztepa ko'chasi 52-uy. Tel.: (+99878) 113-76-86), (+99895) 501-24-42).

Dissertatsiya bilan Oriental universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100059, Toshkent shahri, Olmazor tumani Noraztepa ko'chasi 52-uy. Tel.: (+99878) 113-76-86), (+99895) 501-24-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.K.Mamanazarovna

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

M.U.Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d., professor

A.A.Xalikov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi globallashuv jarayonlari ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish mazmunini boyitishga ma'naviy ehtiyoj sifatida qarashni taqozo etmoqda. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) tomonidan qabul qilingan "Ta'lim-2030" dasturida ijodiy fikrlash, faol o'rganish, tanqidiy yondashuv va motivatsiyani kuchaytirish ta'limning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillarini aniqlash zarurati belgilab berilgan¹. Aynan, xalqaro tadqiqotlar mazmunini o'tmish saboqlari asosida mustahkamlash, ijtimoiy, madaniy va siyosiy islohotlar, hamda ta'lim tizimini modernizatsiyalash, milliy o'zlikni anglash va taraqqiyotni targ'ib qilishda intellektual-ma'rifatparvarlik harakati bo'lgan jadidchilik g'oyalaridan muayyan darajada foydalanish, pedagogik taraqqiyot tendensiyalarini o'rganishdagi milliy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlari, xususan, Turkiston (Markaziy Osiyo), Qrim, Idel-Ural (Volgabo'yi) va Kavkaz mintaqalarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan. O'zbekistonda tizimli ravishda jadidlar faoliyatiga bag'ishlangan turli ilmiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.. Shu qatorda Buxoro jadidlari o'zining asosiy yangilikka intiluvchan maqsadlari bilan ajralib turgan. Ushbu maqsadlar mazmunida ta'limni isloh qilish (maorifchilik): yangi usul maktablari, o'qitish metodikasini o'zgartirish, barchaning savodli bo'lishi; madaniy va ma'naviy yuksalish: matbuot va nashriyot ishi, adabiyot va san'at, kitobxonlik madaniyatini oshirish; ijtimoiy va siyosiy islohotlar: milliy o'zlikni anglash, islohotchilik, huquq va adolat, iqtisodiy rivojlanish; Yevropaning ilg'or ilm-fani, texnikasi, ijtimoiy-siyosiy tajribasini o'rganib, uni milliy urf-odatlar va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga intilishga oid g'oyalar zamonaviy ta'lim tendensiyalarini rivojlantirish uchun fundamental asos bo'lib kelmoqda.

Mamlakatimizda milliy madaniyatimizning bu muhim sahifalarini haqqoniy va xolisona o'rganishga imkon yaratilib, XXI asr bo'sag'asida jadidchilik harakatini o'rganishga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimidagi islohotlar "...yoshlarimizning bilimi va imkoniyatlarini Vatanimiz ravnaqi yo'lida birlashtirish bugungi zamon pedagogikasining oldiga qo'yilgan maqsadlardan asosiysi"² bo'lib, bu borada jadid ma'rifatparvarlarning yoshlar tarbiyasiga hayot yoki mamot masalasi sifatida qaragani fikrimizni asoslaydi. Shu bois pedagogik merosimiz, ma'naviy qadriyatlar, yoshlarni zamon talablari asosida o'qitishning yaqin o'tmishini birlamchi manbalar asosida chuqur o'rganish va tadqiq etish, ulardan hozirgi mustaqillik sharoitida ma'naviyatimizni, milliy

¹ Butunjahon ta'lim forumi . Incheon, Janubiy Koreya 2015 yil 15 mayda.

² Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". Toshkent. O'zbekiston. 2018. B-497.

tarbiyashunosligimizni rivojlantirishda foydalanish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashtirilgan va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganganlik darajasi. O'zbek milliy davlatchiligining turli tarixiy bosqichlarida o'qitish va ta'lim-tarbiya masalalarini o'rganish pedagogika fanida hamma vaqt qiziqarli mavzulardan biri bo'lib kelgan. O'zbek olimlaridan U.Dolimov, B.Qosimov, Sh.E.Ne'matov, N.Alimova, D.Alimov, Y.Abdullayev, O.Abdullayev, B.Ahmedov, D.Ahadova, Z.Ahrorova, Jamolova D, Ahmadova Z.Sh. kabi bir qancha olimlarning Buxoro tarixini va madaniyatini o'rganishda ilmiy muassasalarning o'rni va roli qanday bo'lganligi, Turkiston jadidlarining faoliyatlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlari mavjud.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan K.E.Bendrikov, S.M.Gramenitskiy, Elen Karrer, AnkeFon Kyugelgan, S.N.Tolstov, N.Arxaangelskiy, N.Diktorovalarning tadqiqotlarida jadid pedagogikasi, Buxorodagi ta'lim-tarbiya tizimi undagi ilg'or g'oya va qarashlari, ta'lim-tarbiya usullari ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilgan.

Xorijiy mutaxassislardan E.Ollvort, E.Lazzerin, Nodir Davlat, Ahad Andijon, Xisao Komatsu, Ingeborg Baldauf, Adib Xolid kabi olimlarning Buxoro jadidlari va Buxoroda mavjud bo'lgan siyosiy tashkilotlar faoliyatini o'rganish borasida asarlari e'tiborga loyiq.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan, Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotini tahlil qilish va didaktik jihatdan o'rganishning dolzarb pedagogik muammo ekanligi ayon bo'ladi. Mana shu masalalarni ilmiy-nazariy manbalar asosida yoritish masalasi mavzuning dolzarbligi va zarurati hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Buxoro davlat

universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi “Barkamol avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari” muammosi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid materiallarini o’rganish, tahlil qilish asosida zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid ilmiy-nazariy tavsifalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoro jadidchiligining paydo bo’lishi, rivojlanish sharoitlari va ijtimoiy-siyosiy omillarini pedagogik qarashlarini o’rganish orqali ilmiy tahlil qilish;

Buxoro jadid maktablarining ochilishi, ular faoliyatining mazmuni, o’quv dasturlari va o’qitish metodikalari mazmunini sinergetik tasxishlash orqali aniqlashtirish.

Buxoro jadidlarining ta’lim jarayonidagi pedagogik yondashuvlari ilmiy qiymatini baholash;

Buxoro jadidlarining pedagogik merosini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan baholash, uning bugungi ta’lim tizimi uchun ahamiyatini ilmiy asoslash.

Tadqiqot ob’ekti sifatida Buxoro jadidlari va siyosiy-ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati, maorif uyi faollarining ta’lim-tarbiya va o’qitishga oid qarashlari, arxiv ma’lumotlari, ilmiy-nazariy adabiyotlar tadqiqot ob’ekti tanlangan.

Tadqiqot predmetini Buxoro jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotining mazmuni, mohiyati, an’anaviy tarbiya usullari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyani yozishda tarixiylik, xronologik tizimlilik, davriylik, mantiqiy yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so’rovlar, test o’tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik(ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash kabi).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buxoro jadidchiligining paydo bo’lishi, rivojlanish sharoitlari va ijtimoiy-siyosiy omillari o’sha davr pedagogikasining g’oyaviy-nazariy manbalarini milliy, sharqona, g’arbiy qiyoslash asosida aniqlashtirish hamda ularning pedagogik qarashlariga integrativ ta’sirini o’rganish orqali ilmiy tahlil qilingan;

Buxoro jadid maktablarining ochilishi, ulardagi faoliyat jarayonlari, o’quv dasturlari va o’qitish metodikalari mazmuni o’sha davrga oid bilim berish, tarbiyalash, shaxsni kamol toptirishga oid qarashlarini tadqiq qilish va ularning zamonaviy pedagogika bilan bog’liqlik darajasini sinergetik tasxishlash orqali aniqlashtirilgan;

Buxoro jadidlarining ta’lim jarayonidagi pedagogik yondashuvlari ilmiy qiymati o’quvchilarni o’qitishda differentsial va individual ta’lim shakllarini qo’llash hamda milliy, umuminsoniy, diniy, dunyoviy qadriyatlarni

uyg'unlashtirish tamoyillariga mos ma'naviy-axloqiy tizimni transformatsiya qilish asosida qiyosiy baholangan;

Buxoro jadidlarining pedagogik merosini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan baholash, uning bugungi ta'lim tizimi uchun ahamiyati ijtimoiy-siyosiy omillarini tizimli o'rganishda gender va ijtimoiy tabaqa jihatlarini hisobga olishga oid arxiv materiallar va o'rganilgan manbalarni tadqiqotga jalb qilish, boshqa mintaqalar (Qashqar, Qo'qon, Toshkent, Qrim) jadidchilik harakatlari bilan o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha Buxoro jadidlarining ilg'or pedagogik g'oyalarini, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv, yangi o'qitish usullari, o'quvchilarning faolligini oshirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jadidlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarni saqlagan holda dunyoviy bilimlarni o'rgatish tamoyilini bugungi ta'lim jarayonida qo'llashga oid ilmiy tavsiyalar asosida "Pedagogika nazariyasi va tarixi" darsligi mazmuni boyitilgan hamda jadid pedagogikasidagi shaxsga yo'naltirilganlik tamoyillarini zamonaviy ta'limda qo'llash bo'yicha ilmiy tavsiyalar mazkur darslik mazmuniga kiritilgan.

Dissertatsiya ishida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, keltirilgan ilmiy materiallar va xulosalardan pedagogika tarixini o'qitish, maxsus kurslar ishlab chiqish, pedagogika tarixiga oid darsliklarga muhim o'zgarishlar kiritish, o'quv qo'llanmalar va ma'ruzalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda pedagogika tarixi sohasini rivojlantirish uchun tadqiqot natijalarini jalb qilish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot pedagogika tarixi va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar va usullar asosida birlamchi arxiv manbalari, ilmiy-nazariy adabiyotlar va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan bo'lib, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilgani, olingan natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston tarixida Buxoro jadidchiligidan o'ziga xos tomonlari, shakllanish omillarini yangi manbalar va tahlil usullari asosida chuqurroq o'rganish, Buxoro jadidlarining pedagogik g'oyalarini milliy, sharqona va g'arbiy manbalar nuqtayi nazaridan tizimli qiyosiy tahlil qilish orqali O'rta Osiyo ma'rifatparvarlik harakatining umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash, jadid pedagogikasining shaxsni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy-axloqiy tarbiya kabi jihatlarini zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan bog'lab, yangicha talqinini berish, arxivlarda saqlanayotgan manbalarni ilmiy muomalaga kiritish uchun yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qitish metodikalarini boyitishda Buxoro jadidlarining pedagogik merosidan foydalanish, milliy

qadriyatlarni va umuminsoniy g'oyalarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim-tarbiya berish uslublarini takomillashtirish, o'quv jarayonida Buxoro jadidlarining pedagogik tajribasini o'rganish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalashda jadidlarining ibratli faoliyatidan foydalanishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalar asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Pedagogika nazariyasi va tarixi" darsligi tayyorlangan va o'quv jarayoniga tadbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganishga oid ilmiy natijalar asosida:

Buxoro jadidchiligining paydo bo'lishi, rivojlanish sharoitlari va ijtimoiy-siyosiy omillari o'sha davr pedagogikasining g'oyaviy-nazariy manbalarini (milliy, sharqona, g'arbiy) aniqlashtirish hamda ularning pedagogik qarashlariga integrativ ta'sirini o'rganish orqali ilmiy tahlil qilingan dissertatsiya natijalaridan O'zbekiston respublikasi teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat bo'limining "Moziy bisotidan", "Asrlarning asraganlari", "Assalom Buxoro" ko'rsatuvlari senariysini tuzishda foydalanilgan hamda davra suhbatlari va muloqotlar uyushtirilgan. (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 21-maydagi 01-0988-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya materiallari ko'rsatuvlarni mazmunan boyitishga, teletomoshabinlarda Buxoro maorif uyi ma'rifatparvarlari tashabbusi bilan o'lkada yangi paydo bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida keng tushunchaga ega bo'lishlariga xizmat qilgan.

Buxoro jadid maktablarining ochilishi, ular faoliyatining mazmuni, o'quv dasturlari va o'qitish metodikalari mazmuni o'sha davrga oid (bilim berish, tarbiyalash, shaxsni kamol toptirish) qarashlarni tadqiq qilish va ularning zamonaviy pedagogika bilan bog'liqlik darajasi sinergetik tasxishlash orqali aniqlashtirilgan tavsiyalar asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Pedagogika nazariyasi va tarixi" darsligi mazmuni takomillashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil, 27- dekabrda № 485-buyrug'i, № 485-0216 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, Buxoro maorif uyi ma'rifatparvarlarining pedagogik g'oyalaridan o'qitish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda foydalanish yo'llari ishlab chiqilgan.

Buxoro jadidlarining ta'lim jarayonidagi pedagogik yondashuvlari ilmiy qiymati o'quvchilarni o'qitishda differentsial va individual ta'lim shakllarini qo'llash hamda milliy, umuminsoniy, diniy, dunyoviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish tamoyillariga mos ma'naviy-axloqiy tizimni transformatsiya qilish asosida qiyosiy baholangan taklif va tavsiyalar asosida pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Pedagogika nazariyasi va tarixi" darsligi uchun test topshiriqlari va loyihaviy ta'lim topshiriqlari banki yaratilgan. (O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil, 23-sentabrda 02/01-01-371-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini

real baholash imkoniyati yanada ortgan va o'quv jarayoni mazmunan boyishiga erishilgan.

Buxoro jadidlarining pedagogik merosini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan baholash, uning bugungi ta'lim tizimi uchun ahamiyati ijtimoiy-siyosiy omillarini tizimli o'rganishda gender va ijtimoiy tabaqa jihatlarini hisobga olishga oid arxiv materiallar va o'rganilgan manbalarni tadqiqotga jalb qilish, boshqa mintaqalar (Qashqar, Qo'qon, Toshkent, Qrim) jadidchilik harakatlari bilan o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali ilmiy asoslangan ma'lumot va tavsiyalardan "Jadidlar g'oyasi-yangi O'zbekiston va uchinchi Renessansni bunyod etishning mustahkam poydevori" nomli grant loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi jamoat Fondining "Shashmaqom" va nomoddiy madaniy meros, "Jadidlar g'oyasi-yangi O'zbekiston va uchinchi Renessansni bunyod etishning mustahkam poydevori" nomli davlat grantining 2024-yil, 24-oktabrdagi №87-12/242-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, keltirilgan ilmiy materiallar va xulosalardan pedagogika tarixini o'qitish, maxsus kurslar ishlab chiqish, pedagogika tarixiga oid darsliklarga muhim o'zgarishlar kiritish, o'quv qo'llanmalar va ma'ruzalar tayyorlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqolalari mavjud bo'lib, shundan 2 tasi xorijiy jurnallarda, 6 tasi respublika ilmiy jurnallarida, ilmiy-amaliy anjumanlarida 11 ta tezis, shundan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 6 ta, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 6 ta tezislari chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlardan tarkib topgan bo'lib, jami 174 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobatyasi, joriylanishi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyoti**" deb nomlangan birinchi bobida Buxoro jadidchiligidan shakllanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy omillar, "Usuli jadid" tipidagi maktablarning tashkiliy-uslubiy mazmuni, o'quv

rejalarining o'ziga xos xususiyatlari, jadidlar tomonidan darslik va o'quv adabiyotlarning nashr etilishi tahlillari, tarixiylik, xronologik tizimlilik, davriylik, mantiqiy yondashuvlar ilmiy asoslangan tarzda bayon etilgan.

Jadid so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "yangilik", "yangi usul" ma'nosini anglatadi. Jadidlar o'zlarining faoliyatida eskilikka qarshi chiqib, yangi, zamonaviy usullarni qo'llashga intilganlar. Buxoro jadidlari – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida taraqqiyparvarlik g'oyalarini ilgari surgan va yangi maktablar ochish, maorifni isloh qilish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish uchun kurashgan ziyolilar guruhi bo'lib, ularning asosiy maqsadi jamiyatni yangilash, maorifni rivojlantirish va taraqqiyotga erishish uchun kurashishdan iborat bo'lgan (1-rasmga qarang).



Jadidlarning asosiy maqsadlari va faoliyati

Buxoro jadidlari deyarli hech qachon o'zlarini "jadid" deb atamagan, lekin ko'pincha bir-biriga nisbatan "Javonbuxoroi" ("Yosh buxorolik") ni ishlatgan. Buxoro jadidlari faoliyati eski maktablarda (madrasalarda) ta'lim berish usullarini o'zgartirish, yangicha metodikalar qo'llash orqali yangi uslubdagi maktablar (usuli jadid maktablari) ochib, ularda dunyoviy fanlar (matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik va boshqalar) bilan birga diniy ta'lim ham berishni integratsiya qilish; ilm-fanga, adabiyot va san'atga katta e'tibor berish, gazeta va jurnallar chiqarish, kitoblar nashr etish, yangi adabiy janrlarni (drama, roman va boshqalar) rivojlantirish; jamiyatdagi eski qadriyatlarga qarshi chiqib, ma'rifatni targ'ib qilish, ayollar huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurash; o'z xalqining milliy ongini o'stirish, uning huquqlarini himoya qilish kabi maqsadlarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan.

Jadidlar qarashlarining shakllanishiga Buxoroning atoqli olimi, yozuvchi va jamoat arbobi, O'rta Osiyoda ma'rifiy harakatning yirik mafkurachilari va asoschilaridan biri hisoblangan Ahmad Donish (1827-1897)ning ta'siri katta bo'lgan. Uning asarlarida tarixiy, adabiy, pedagogik, falsafiy va sotsiologik masalalar o'zaro uyg'unlashgan. Bu uning merosidagi nodir fazilatlardan biri bo'lib, buni zamondoshlari allaqachon anglab yetgan edilar va Buxoro jadidlari uning asarlaridan keng foydalanganlar. Ahmad Donish g'oyalari O'rta Osiyo mintaqasi, xususan, o'sha davr Buxoroning yetakchi arboblari dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatdi va XX-asr boshidagi jadidchilik harakatining g'oyaviy arsenaliga kirib keldi. S.Ayniy A.Donishni "Buxoroning qorong'u ufqidagi tong yulduzi" deb bejiz atamagan. Markaziy Osiyo bo'yicha g'arb olimi Edvard Olvortning fikricha, "Ahmad Donish mahalliy islohotchilarning nazariy asoschisi bo'lgan".

S.Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi" asarida "Bu yangi uslubchilar "usuli jadid" tipidagi maktablar uchun kurashganliklari sababli ularni jadidlar deb atashgan. Maqsadlari taraqqiyot va harakat bo'lib, yetakchilari yoshlar bo'lgani uchun

o'zlarini Yosh buxoroliklar (Yosh turklar kabi) deb ataganlar". Ayrim tadqiqotchilar jadidchilik va "Yosh buxoroliklar" harakati tushunchasida yanglish tarzda qarama-qarshilik ko'rishadi, ya'ni ular yosh buxoroliklarni jadidlardan ajratib ko'rsatadilar. Demak, masalan, 1930-yilda O. Glovatskiy "jadidlar bilan yosh buxoroliklar o'rtasida ma'lum bir chiziq, suv havzasini chizish mumkin va zarur", deb ta'kidlagan edi.

Jadidchilik harakatining faollashuviga oid ma'lumotlarda jumladan, "Samarqand" gazetasining birinchi sahifasida "Samarqand shahridagi Shakuriya jadid maktabida 11-may, shanba kunidan boshlab, uch kun davomida kunduzi soat to'qqizdan to'rtgacha ochiq imtihonlar bo'lib o'tadi. Yoki "Sadoy Turkiston" gazetasidan yana bir misol, "Namanganda imtihon" maqolasida jadid Dado Mirzo Qoraning yangi usul maktabida shu imtihonlari a'lo darajada o'tgani aytiladi. Shahar zodagonlaridan yig'ilganlar talabalarning zamonaviy mavzular va Islom asoslari hamda Qur'on mutolaasiga oid savollariga bergan javoblaridan mamnun bo'lishdi deb aytib o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, jadid maktablari dasturlari odatdagi eski uslubdagi maktablardan farqli o'laroq, bolalarning savodxonlik asoslarini tovush usuli yordamida o'zlashtirish bilan birga, matematika, geografiya, tabiatshunoslik (qattiq jismlar, gaz, havo, issiqlik, sovuq), tabiatshunoslik asoslari (shu jumladan, mineralogiya va hatto anatomiya). Xarakterli jihati shundaki, jadid maktablarida bolalar jonsiz tabiatni (kimyo va fizika elementlarini) o'rgangan, lekin tirik tabiatni o'rganishdan o'zini tiygan. Akademik A.A. Semenov o'zining qo'lyozmalaridan birida jadidlarning yangi usul maktablarini tavsiflab: "Agar bolalar eski maktablarda 2 yilda o'qishni o'rgansalar, yangi usul maktablar bilan solishtirganda ular bu maktablarda yana matematika, rus tili va boshqalarni o'rganadilar, bu ularning taraqqiyoti edi." deb yozgan.

Eski maktabni isloh qilish uchun jadidlar quyidagilarni taklif qildilar: musulmon maktablarida darslarni yagona o'quv rejasiga tegishli o'quv dasturlari asosida o'tkazish; yangi usul maktabining o'quv rejasiga umumta'lim dunyoviy fanlari – arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya, tarix, rus tili, ona tili va boshqalarni kiritish; mutaassib mullalarni o'rniga munosib bilimli, yangicha fikrlaydigan muallimlarni qo'yish; musulmon maktablarida eski qo'shimcha so'z o'rniga yangi tovush usulini joriy etish; maktab bitiruvchilariga tegishli diplom berish kabi o'zgarishlarni kiritishga harakat qildilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy O'rta Osiyodagi yangi usul maktablari o'qituvchilari va talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalarining birinchi mualliflaridan biri hisoblanadi. U nashriyot ishlarida faol ishtirok etgan, "Alifboi maktabi islomiya" ("Islom maktabi ABC", 1906), "Asbobi savod" ("Bilm mavzusi", 1906), "Alifboi maktabi islomiya" kabi o'quv-uslubiy kitoblar muallifi. Muntahabi chugrofiyoi umumi" ("Umumiy geografiyadan saylanmalar", 1906), "Kitobat-ul-atfol" ("Bolalar uchun kitob", 1908), "Amaliyoti islomiya" ("Islomiy xulq", 1908), "Muxtasari tarixi islom". ("Islom tarixi qisqacha", 1909), shuningdek Turkiston, Buxoro va Xiva xaritasi (1913) va hokazo. M.Behbudiyning ushbu darsliklari "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnali sahifalarida doimiy e'lon qilingan.

O'rta Osiyodagi yangi usul maktablari uchun birinchi darslik va o'quv qo'llanmalaridan biri yana bir toshkentlik jadid Munavvar-qori Abdurashidxonov tomonidan tuzilgan kitoblardir. 1907-yilda o'zining yangi uslubdagi maktablari uchun savod o'rgatish va til o'rgatish bo'yicha "Adibi avval" ("Birinchi murabbiy") va "Adibi Sony" ("Ikkinchi murabbiy") darsliklarini yozdi, ular "keng tarqalgan va ba'zi rus tillarida so'zlashuvchi mamlakatlar maktablarida ham qabul qilingan".

Bir qancha darsliklar muallifi yana bir yangi uslub o'qituvchisi Abduqodir Shakuriyning shogirdi Ismatullo Rahmatullozoda 1914-yilda "Ilmi hisob" ("Arifmetika ilmi"), "Kavoidi Forsiya" ("Fors tili qoidalar"), "Talimi Jugrofiya" ("Talimi Jug'rofiya" ("Geografiya o'qitish")) kabi Shakura maktabi o'quvchilari uchun darsliklarni tuzdi.

Bugungi global ta'lim muhitida Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatidagi pedagogik fikrlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tadqiqot davomida o'rganildi:

- jadidlar ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga e'tibor qaratishgan, ularning maqsadi faqatgina ma'lumot berish emas, balki har bir o'quvchining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash bo'lgan;

- jadidlar ta'lim jarayonida milliy madaniyat, til va tarixga katta e'tibor berishgan, ular ta'limni xalqning ma'naviy boyligini saqlash va rivojlantirish vositasi sifatida ko'rganlar;

- jadidlar eski maktablardagi ta'lim usullarini tanqid qilib, yangi, zamonaviy usullarni, jumladan, ko'rgazmali vositalar, yangi fanlarni o'qitishni joriy qilishgan;

- jadidlar ota-onalar va jamoatchilikni ta'lim jarayoniga jalb qilishga, maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishga harakat qilishgan;

- jadidlar diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham o'qitish tarafdori bo'lishgan;

- jadidlar o'qituvchilarni nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, jamiyat faoli sifatida ham ko'rganlar. ular o'qituvchilarning malakasini oshirishga katta e'tibor berishganligini ilmiy asoslandi.

Dissertatsiya ishining **"Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik g'oyalarning amaliyotga tatbiqi va merosini o'rganishning pedagogik imkoniyatlari"** nomli ikkinchi bobida jadid maktablarining Buxoro jamiyatida ma'naviy-axloqiy transformatsiyadagi roli, Buxoro jadidlarining pedagogik merosini ilmiy-nazariy va amaliy baholash mazmuni, "Ko'mak" tashkilotining yoshlarni o'qitishga oid ma'rifiy islohotlari, "Tarbiyayi atfol" jamiyatining ta'lim-tarbiyaga oid faoliyati, "Buxoro maorifi uyi" va "Buxoro xalq respublikasi"ning Turkiston yoshlarini o'qitish borasidagi harakatlari haqida arxiv ma'lumotlari asosida nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Yangi usuldagi maktablarning zarurati, ularning tashkiliy-uslubiy mazmuni, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish jarayonlari masalasiga e'tibor qaratilgan.

Buxoro jadidlari o'zlarining faoliyatlarini turli jamiyat va tashkilotlar tuzish orqali amalga oshirganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaev, Obidjon Mahmudov, Fitrat, Cho'lpon,

Saidnosir Mirjalilov va boshqalar mahalliy xalqni milliy istiqlol bayrog'i ostida birlashtirish va hokimiyatni qo'lga olib, milliy o'zbek davlatini barpo etish yo'lidagi ilk qadamni amalga oshirganlar. Ular mavjud tarixiy sharoitdan foydalanib, "Turon", "Imdodiya" singari ma'rifiy jamiyatlar hamda "Sho'roi islom", "Turk adam markaziyat" kabi milliy siyosiy tashkilotlarni tuzdilar.

Buxoro hukumatining bir qator harakatlaridan so'ng jadidlar yashirin faoliyat yuritib, yashirin maorif jamiyati tuzishga qaror qildilar. 1910-yil 3-dekabrda Buxoroda jadidlar va boshqa yangi o'qitish usullari tarafdorlari "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini tashkil qildilar. Buxoroda Abduvohid Burhonovning tashabbusi bilan "Tarbiyai atfol" jamiyati tashkil etilib, sarmoyadorlarning homiyligi yordamida yoshlar Istanbul, Orenburg, Qozon, Konstantinopol singari xorij shaharlariga o'qishga yuborildi. Mirzo Abduvohid va yana bir qator ma'rifatparvarlar xonadonlarda ham yoshlarga yangi usulda pinhona ta'lim berishda davom etdilar. 1909-1913-yillarda "Tarbiyai atfol" jamiyati homiyligida bir qancha yoshlar Istanbulga o'qishga ketdi. Xorijda o'qigan yoshlar Turkiyada milliy-ozodlik harakati namoyandalari va Istanbulda tahsil ko'rayotgan boshqird, tatar, ozarbayjon taraqqiyparvarlari o'rtasida maslakdoshlar orttirdilar.

A.I.Ishanov ta'kidlaganidek, jadidlarning bu yashirin jamiyati yetti yil (1910-1917), Rossiyada fevral burjua-demokratik inqilobi g'alabasigacha mavjud bo'lib, Buxoro jadidlarining yetakchi markazi bo'lib qoldi. N.B.Hotamov yuqorida qayd etilgan maxfiy jamiyatning tashkil topishiga amir hukumati tomonidan "Munzim maktabi"ning yopilishi sabab bo'lgan, deb hisoblaydi.

Garchi "Tarbiyai atfol" o'z faoliyatini yozma, yashirin holatda, ma'rifiy maqsadlar bilan cheklab qo'ygan bo'lsa-da, aslida bu jamiyat a'zolari islohotlarni o'tkazish, o'sha paytdagi boshqaruv uslubiga qarshi siyosiy targ'ibot olib borishdi. S.Ayniy jamiyatning vazifasini quyidagicha belgilaydi:

1.Maorif sohasida – xalqni ilm-ma'rifat bilan tanishtirish, bilim olishga intilayotganlarga har tomonlama yordam berish, xalq orasida gazeta, jurnal va boshqa adabiyotlarni tarqatish. Jamiyatning har bir a'zosi savodsizlarga har qanday fursatda ovoz chiqarib o'qib berish uchun o'zi bilan doimo gazeta va adabiy-ma'rifiy kitob bo'lishi shart, savodlilar uchun esa bahs boshlash zarur edi.

2.Xalq manfaatlarini himoya qilish sohasida – oddiy xalqning an'anaviy isrofgarchiligi va yomon odatlarga qarshi kurashish, to'y-hashamlar, motam tadbirlari vaqtidagi xarajatlarni kamaytirish.

3.Hukumatga qarshi tashviqot sohasida – amirlik hukmron doiralari (amir, qushbegi, beklar, qozilar, ruhoniylar)ning o'zboshimchalik, zo'ravonlik va istibdodlarini xalqqa ko'rsatish.

"Tarbiyai atfol" jamiyati a'zolari tomonidan "Ma'rifat" jamoat kutubxonasi ham tashkil etildi, unga Muso Saydjonov mudir, Abdulvohid Munzim, Qori Hoshim va Xoji Sirodjlal mudir etib tayinlandi. So'z o'rnida shuni ta'kidlaymizki, 1914-yilning mart oyida "Tarbiyai atfol" jamiyati Qori Hoshimni Baxchisaroyga, Ismoil Gasprinskiy huzuriga yangi usuldagi maktablardagi o'quv jarayoni bilan

tanishish uchun yuboradi. “Mullo Nasreddin”, “Hab-ul” kabi gazetalarni tarqatish bilan shug‘ullangan.


Buxoro jadidlarining “Tarbiyai atfol” yashirin jamiyatining vujudga kelishi va uning a’zolarining ma’rifiy faoliyati, shubhasiz, Buxoro xalqlarining o‘z-o‘zini anglashidagi eng muhim qadam bo‘ldi. Buxoro maorif uyining tashkil topishi va uning tarbiyalanuvchilari safidan akademiklar, injenerlar, arxitektorlar, fan va madaniyat arboblari yetishib chiqishi va ular keyingi avlodning ta’lim-tarbiyasi jarayoniga ulkan hissa qo‘shganliklari ta’kidlab o‘tilgan.

BXSR Maorif nazorati tomonidan 1922-1924-yillarda maorif sohasining turli qirralarini qamrab olgan va takomillashtirishga qaratilgan buyruqlar ketma-ket chiqib turgan, maorif qurultoylari uyushtirilgan va qurultoylarni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlar tashkil qilingan, maorifni moddiy jihatdan ta’minlashga BXSR tomonidan mablag‘lar ajratilgan, maorif ikki haftaliklari o‘tkazilgan, butun Buxoro muallimlarining seminar-kengashlari tashkil etilgan, ularda ta’lim jarayonidagi ko‘plab masalalar ko‘rilgan, BXSRda maktab islohotidagi o‘zgartirishlar kundan-kun oshib borgan.

Maorif va maktab tizimini yo‘lga qo‘yishda eng asosiy me’yoriy hujjat BXSR maorif noziri Qori Yo‘ldosh Po‘latov rahbarligida ishlab chiqilgan “Maktablar haqida umumiy qoidalar” (“Qoidalar”) bo‘lib, uning matni “Buxoro axbori” sahifalarida to‘la holicha e’lon qilingan. Ushbu asosiy qoidalar Buxoro ma’orif uyi oldiga qo‘ygan maqsadni aniq belgilab beradi. Bu maqsad Buxoro Respublikasining iloji boricha tezroq Sovet mehnat maktabida o‘qigan, tegishli maktabda va maktabdan tashqari tashkilotlarda haqiqiy dunyoqarashga, xulq-atvorga ega bo‘lgan, o‘z vatanida yangi hayot shakllarini tayyorlaydigan quruvchilar bo‘lishini istagan edi.

Buxoro ma’orif uyi tomonidan belgilangan aniq maqsad o‘quv va tarbiya ishlari qaysi yo‘nalishda qurilishi kerakligini to‘liq ko‘rsatib berdi. Buxoro maorif uyining tashkil topishi va uning safidan yirik davlat hamda madaniyat arboblarning yetishib chiqishida o‘z xalqining haqiqiy vatanparvari, jonkuyari Fayzulla Xo‘jaevning shaxsiy rolini ta’kidlash lozim. “Buxoro maorif uyi” tarbiyalanuvchilari safidan akademiklar, injenerlar, arxitektorlar, fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi va ular keyingi avlodning ta’lim-tarbiyasi jarayoniga ulkan hissa qo‘shdilar. “Buxoro maorif uyi” ning tajribasini mustaqil O‘zbekistonning yoshlari o‘z tarixlarining yorqin sahifasi sifatida bilishlari, o‘rganishlari muhim hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Buxoro jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlari asosida o‘qitishning ta’lim samaradorligi”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqot natijalari asosida biz dissertatsiya ishimizda Buxoro jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotining mazmuni, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarga oid faoliyatlarining prognostik modeli ishlab chiqildi (1-rasm)



1-rasm. Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganish va amaliyotga tadbiq etish modeli

Pedagogika tarixi va nazariyasi fani o'z nomiga ko'ra xalqimizning yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishga doir fikrlarini, tarixiy manbalarning va ma'naviy merosimizning tarbiyaviy ahamiyatini, ta'lim-tarbiya, maktab va maorif sohasining tarixiy taraqqiyot yo'lini, pedagogik qarashlar tarixini hamda ilmiy-pedagogik nazariyalarning rivojlanishini yangi bosqichga moslashtirib tahlil etadi.

Biz tadqiqotimizda Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlarini ilmiy tahlil etar ekanmiz, bu jarayonni pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar jamoasi hamda bo'lg'usi pedagoglar, ya'ni talabalar

yaxshi bilishlari va milliy, ma'naviy, tarixiy manba sifatida har tomonlama o'rganishlari, ulardan o'z pedagogik faoliyatlarida keng foydalanishlari lozim deb bilamiz. Chunonchi, tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat Pedagogika instituti, Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogik instituti talabalari jalb etilgan.

Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganish asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda shu kunga qadar rivojlanib kelgan pedagogik fikrlarning asosiy mazmunini o'rganish bilan birgalikda pedagogik muammolarni amaliy ehtiyojlardan kelib chiqib tanlash va tadqiq etishni, shuningdek, pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy metodologiyasini takomillashtirishga ham e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun tizimli-struktur, integratsion, innovatsion, strategik yondashuvlar asosida quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlari va uning ilmiy nazariy asoslarini yoritib berish;

Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini isloh qilish harakati va yangi usul maktablaridagi ta'lim-tarbiya tizimini aniqlashtirish;

Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganishning tajriba-sinov ishlarini samaradorligini ochib berish;

Ushbu vazifalarni bajarish qo'yidagi tamoyillar asosida amalga oshirildi:

- konsentrizm tamoyili asosida pedagogik muammolarni tadqiq etish;
- pedagogik fikrlar rivojida sinergizm tamoyiliga ustuvor ahamiyat qaratish;
- Pedagogik fikrlar rivojida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash.

Talabalardan olingan savol-javob ishlari natijalari

3.1.1-jadval

№	Talabalar	
1	Bilimga ega	30%
2	Olimlar haqida eshitgan	45%
3	Tushunchaga ega emas	55%
4	Bilishni istaydi	90%

Respondent-talabalardan olingan javoblar tahlili natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Muammo yuzasidan talabalarning bilimi va tushunchalari yetarli darajada emas.

2. Ko'tarib chiqilgan muammoning dolzarb ekanligi hamda hozirgi davrda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tushunadi.

3. O'qituvchilarning muammo yuzasidan ma'lum ilmiy-metodik taklif va tavsiyalarga zarurligi ma'lum bo'ldi.

4. Mustaqillik yillarida pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, pedagogika tarixining yo'nalishlari haqida zarurli ma'lumotlarni egallash lozim deb hisoblashi ma'lum bo'ldi .

Demak, tajriba-sinov ishlarining xulosasi shundan iboratki, Buxoro jadidlari va siyosiy-ijtimoiy tashkilotlarning yoshlarni o'qitish va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlari to'g'risida talabalar yetarlicha bilimga ega emas.

Yuqoridagi kelingan xulosaga ko'ra, muammolarni yechish maqsadida qo'yidagi vazifalarni bajarishga doir quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Buxoro davlat Pedagogika instituti, Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogik instituti talabalari orasida 2023-2025-yillar davomida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganishga doir faktik materiallardan ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beruvchi didaktik shart-sharoitlarning Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida mavjudligini aniqlash;

- o'quvchi-talabalarda shaxs sifatida o'zligini va milliy o'zlikni anglashni, xalq pedagogikasining tarixiy tajribalaridan foydalanish, insoniylik fazilatlarini tarbiyalashda pedagogika tarixidan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

- Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid yutuqlaridan foydalanib, tarbiya jarayonini samarali yo'lga qo'yish imkonini beradigan o'quv-metodik adabiyotlar majmuini yaratish;

Talabalarning Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganishga doir bilimlarini aniqlash quyidagi prognostik metodlar va vositalari yordamida amalga oshirildi:

1. a) Umumilmiy: kuzatish, eksperiment, analiz, sintez, farazni ilgari surish, induksiya, deduksiya, analogiya, tasniflash, tizimlashtirish;

- b) Xususiy-ilmiy: germeneytik-pedagogik, aksiopedagogik, refleksiv-pedagogik.

2. Seminar mashg'ulotlari, treninglar, ilmiy izlanish, arxivda ishlash, pedagog-olimlar bilan uchrashuv, ilmiy munozara, ma'ruza va suhbatlar tashkil etish.

3. Texnik va axborot vositalari - radio, televideniyadan axborotlar to'plash, materiallar berish, kompyuter, xalqaro aloqa tizimi internet xizmatidan foydalanish, ma'lumotlar kiritish.

4. Interfaol metodlardan foydalanish: "Konseptual jadval", "T-chizma", "Venn diagrammasi", "Klaster", "Aqliy hujum", "Keys stadi" texnologiyasi va h.k.

5. Ijodiy ishlar - referat, esse, mustaqil ish.

Bu kabi tadbirlar va mashg'ulotlarni tashkil etishda dastavval Buxoro davlat Pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi tinglovchilaridan 205 nafar, Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti talabalaridan Pedagogika va psixologiya yo'nalishi tinglovchilaridan 201 nafar, Navoiy davlat pedagogik instituti 209 nafar talabalar jalb etildi.

3.1.2-jadval

O'quvchilarni baholash ko'rsatgichlari.

1	Bilishga oid ko'rsatgichlar	Berilgan topshiriqlar asosida bilimlari aniqlandi
2	Qadriyatli va motivatsion	Tushuncha va predmetlarga nisbatan havas, qiziqishlari aniqlandi
3	Faoliyatli	Qiziqishlar natijasida mustaqil ishlar, ESCE, test, glassariy, taqdimot, kabi ijodiy ishlarni tayorlashga doir kompetensiyalari aniqlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasasida 100-200 talaba ishtirok etgan ma'ruza darslarida o'qituvchining ma'lum mavzu yuzasidan ma'ruza o'qishi, savol- javoblar o'tkazishi odatiy tusga kirib qolgan. Asosan, o'qituvchilar seminar mashg'ulotlarini interfaol usullarda tashkil etishni ma'qul ko'radilar. Bu o'quvchilar kontingenti va vaqt budjeti bilan bog'liqdir. Lekin tajribalar shuni ko'rsatadiki, nafaqat seminar, balki ma'ruza darslarini ham interfaol usullar yordamida tashkil etish mumkin.

Pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining muvaffaqiyati ilmiy, nazariy g'oyalarning amaliy faoliyatdagi samaradorlik darajasi bilan belgilanadi. Shu mazkur tadqiqotlar jarayonida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mukammal va samarali metodikasini ishlab chiqish, metod hamda vositalarini aniqlab olish, bosqichlarini belgilash va ular o'rtasida izchillik hamda uzviylikni ta'minlash, barcha bosqichlarda asosiy maqsadni ijobiy hal etishga e'tibor qaratildi.

Styudent va Pirsonning χ^2 matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik.

Yuqoridagi jadvallar asosida talabalarning tajriba va nazorat guruhlarida o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi H_1 gipoteza va unga zid bo'lgan H_0 gipoteza tanlanadi.

Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganish jarayonini davr talablari asosida ta'minlash uchun o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tajriba-sinov oxirida (3.2.2-jadval) quyidagicha ko'rinishni oldi.

3.2.1-jadval.


O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

Talabalarning o'zlashtirish darajalari	Tajriba guruhida 314		Nazorat guruhida 301	
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
Yuqori	95 (30,3%)	123 (39 %)	60 (20%)	70 (23,3%)
O'rta	109 (34,7%)	143 (45,7%)	107 (35,6%)	128 (42,5%)
Quyi	110 (35%)	48 (15,3%)	134 (44,4%)	103 (34,2%)

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda talabalarda Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik faoliyatida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga oid faoliyatlarini o'rganish jarayonini davr talablari asosida ta'minlash samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Styudent kriteriysi yordamida tahlil etdik.

Tajriba-sinovda jami 615 nafar talabalar qatnashdi. Shundan, tajriba guruhida 314 nafar talaba ishtirok etgan bo'lsa, nazorat guruhidada 301 nafar talaba ishtirok etdi.

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi:



3.1-rasm.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Umumiy xulosa:

1. Mavjud ilmiy-tarixiy manbalar hamda arxiv materiallarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlariga kelib Turkistonda jadid maktablarini yaratish uchun ijtimoiy-siyosiy hamda pedagogik ehtiyoj vujudga keldi. Bu ehtiyoj o'lka aholisi savodxonligini oshirish orqali milliy uyg'onish jarayonini tezlashtirish zaruriyati bilan izohlanar edi.

2. Turkiy xalqlarni g'oyaviy-ma'rifiy qurol-ta'lim-tarbiya vositasida ruslashtirish siyosatini amalga oshirish maqsadida rus millatiga mansub davlat vakillari maktablarni darsliklar bilan ta'minlash harakatiga rahbarlik qila boshladilar. O'zbek ma'rifatparvarlari yangi maktablar ochish, darsliklar yaratish harakatida faol ishtirok etibgina qolmasdan, o'z mablag'lari hisobidan ularni chop ettirdilar va milliy maktablar uchun milliy darsliklar dunyoga keldi.

3. Kuzatish va ilmiy tahlillarimiz natijasida XIX-asrning oxiri-XX-asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik muhit mahsuli bo'lgan yangi usul maktablari hamda siyosiy-ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatini tahlil qilish va ularni ta'lim tizimida didaktik jihatdan o'rganishning dolzarb pedagogik muammo ekanligi ayon bo'ldi.

4. Demak, mahalliy va Rossiya hokimiyatlarining doimiy nazorati ostidagi jadidlarning "Tarbiyai atfol", "Buxoro maorif uyi", "Jamiyati hayriya", "Ko'mak", "Imdodiya" va boshqalarning ma'rifiy xayriya jamiyatlari Markaziy Osiyoda bilim va ma'rifatni yoyishda muhim rol o'ynadi. Bu jadidlar jamiyatlari faqat ma'rifiy maqsadlarni ko'zlaganlar: yangi uslubdagi maktablarga homiylik qilganlar, odamlarni ilm-ma'rifat bilan tanishtirganlar, iqtidorli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborishgan, o'lka aholisi o'rtasida gazeta, jurnal va boshqa dunyoviy adabiyotlarni tarqatishgan.

5. Jadidlar pedagogikaning didaktik tamoyillariga asoslanib, o'z mintaqasi xalq ta'limi tizimiga yangilik kiritdilar. Ular o'z maktablarining o'quv rejasi va

dasturlariga haqiqiy umumta'lim fanlarini – ona tilida o'qish va yozishni, arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik, rus tili va boshqalarni kiritdilar. Boshlang'ich maktab islohoti ijtimoiy hayotda jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

6. Jadidchilikka ilg'or milliy ziyolilarning alohida vakillari, asosan, madrasa talabalari, yangi usul maktablari o'qituvchilari, ijodiy va adabiy doiralar vakillari, shuningdek, mayda do'kondorlar qo'shildi. Ular orasida yirik savdogarlar va paxta tozalash zavodlari egalari ham bo'lib, ular asosan jadidlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlar.

7. Buxoro maorif uyi Buxoroda ta'lim rivojlanishining markazi va sarchashmasi hisoblanib, oddiy xalq ichidan chiqqan bolalar egallagan bilimlari natijasida Buxoroda iqtisodiyot hamda madaniyat rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar. Bunday ta'lim va madaniyat markazining tashkil etilishi va taraqqiyotida Rossiya ham ulkan pozitiv rol o'ynadi. Qisqa muddat ichida Rossiyalik mutaxassislarning boy ilmiy va amaliy tajribasi Buxoro va O'zbekiston xalqi uchun yetuk mutaxassislarni yetishtirib berishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. "Buxoro maorif uyi" ning tajribasini mustaqil O'zbekistonning yoshlari o'z tarixlarining yorqin sahifasi sifatida bilishlari, o'rganishlari muhim hisoblanadi.

8. Jadid maktablari uchun yaratilgan darsliklar va metodik qo'llanmalar asosan, yozuvchi-shoir va tilshunoslar tomonidan yaratilganligi uchun ham ularning didaktik qurilishi o'ta jo'n hamda taqdim etilgan nazariy ma'lumotlarning bayoni ayrim kamchiliklar va ilmiy jihatdan noto'g'ri fikrlardan xoli emas. Bu esa ularni bugungi avlod tomonidan o'rganilayotganda ehtiyotkorlik va teran nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi.

Tadqiqot natijasida quyidagicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Avvalo, yoshlarimiz bizning milliy davlatchiligimiz tarixini hamda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish uchun pedagogika tarixini mukammal bilish va ongli anglashni kuchaytirish uchun ilmiy-tarixiy muassasalarni ko'paytirish kerak.

2. Buxoro jadidlarlari tomonidan Moskvada tashkil etilgan Buxoro maorif uyi faoliyati va uning zamonaviy pedagogika rivojidagi o'rni masalalarini alohida tadqiqot doirasida o'rganish.

3. Ilmiy tarixiy muassasalarni faoliyatini o'rganish maqsadida taqqoslash, qiyoslash va turli xil musobaqa ko'rinishdagi dars shakllaridan foydalanib o'tilsa samarali natijalarni ta'minlaydi.

4. O'rta maxsus talim dargohlarida va Oliy o'quv yurtlarida talabalari ongida milliy g'urur, ona vatanga bo'lgan yuksak hurmat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni o'stirishda ilmiy tarixiy muassasalarni ahamiyatli ekanligini anglatish uchun talaba yoshlar orasida ushbu mavzuda seminarlar, konferensiyalar va ko'rik tanlovlar o'tkazilib turilsa yaxshi bo'ladi. Bundan tashqari oliy o'quv yurtlari kafedralari qoshida tashkil etilgan iqtidorli talabalarning to'garaklarida ushbu masalalarga ko'proq vaqt ajratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
SPISOK OPUVLIKOVANNYIX RAVOT
LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (I часть: I part)

1. Aslonov M.M. Buxoro maorifi uyining ma'naviy-madaniyatini rivojlanishidagi o'rni // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnali. Buxoro, 2021. №1 -B.71-73. (13.00.01. № 23)
2. Aslonov M.M. Buxoro maorifi uyida tashkil etilgan to'garaklar faoliyati hamda uning yetuk mutaxassislarni yetishtirib berishdagi ijobiy ta'siri// Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnali. Buxoro, 2023. №4 -B. 243-247. (13.00.01. № 23)
3. Aslonov M.M. O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevori ta'lim islohotlari orqali yaratiladi // O'zbekistonda ta'lim jurnali. Toshkent, 2021. -B.12-13. (13.00.01. № 17)
4. Aslonov M.M. The educational process and content of educational activities in the "House of Bukhara education" // FarDU. Ilmiy xabarlar. 2024. №1. -B. 358-362 (07.00.00. № 32)
5. Aslonov M.M. Moskvadagi "Buxoro xalq maorif uyi" haqida ba'zi mulohazalar // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: Vol 2, Issue 12, 19 th December, 2023. -P. 7-11. (13.00.01. № 4)
6. Aslonov M.M. Buxoro maorif uyining O'zbekistonda ta'lim va madaniyatni rivojlanishidagi o'rni // Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim ilmiy-metodik jurnali. 2021. №4 -B. 146-150. (13.00.01. № 24)
7. Aslonov M.M. Statesmen, Cultural Figures Studied at the "Bukhara House of Education" and their Role in Conducting Spiritual and Educational Activities // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics ISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 9 | Sep. 2023. -P.1-5.
8. Aslonov M.M. Socio-political situation during the organization process of the "Bukhara house of education" in Moscow // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492|(SJIF)=7.502 Impact factor Volume-11| Issue-4| 2023 Published: |22-04-2023-P. 423-428.
9. Aslonov M.M. BXSR yillarida faoliyat yuritgan madaniyat muassasalari: maqsad, vazifalari va mafkuraviy tashviqotlar yuritishdagi o'rni // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya "Oliy ta'limni raqamlashtirish muhitida innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar-2024" 1-qism. JizzaxPI, -B.428-432.

10. Aslonov M.M. Moskvadagi “Buxoro xalq maorif uyi”- BXS Rda ta’limni rivojlantirish sa’y-harakatlari namunasi // Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni. 2023. №1 -B.254-258.

11. Aslonov M.M. Buxoro Xalq Respublikasida maorif sohasini isloh etilishi va kadrlar tayyorlash masalasi (1920-1924 yillar) // “Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlar respublika ilmiy-nazariy anjumani, BDPedagogika instituti. 2022-yil, 25-aprel -B. 511-515.

12. Aslonov M.M. Buxoro jadidchilik harakatining paydo bo‘lish omillari va ularda pedagogik fikrlar taraqqiyotiga munosabat masalasi // “Jadidlar g‘oyasi- Yangi O‘zbekiston va uchinchi renessansni bunyod etishning mustahkam poydevori” loyihasi asosida maqolalar to‘plami. 2024. B .438-450.

II bo‘lim (II часть; II part)

13. Aslonov M.M. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” darslik // O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil, 27- dekabrda № 485-buyrug‘i, № 485-0216 raqamli nashr ruxsatnomasi.

14. Aslonov M.M. Pedagogik kreativlik fanidan elektron darslik (elektron o‘quv-uslubiy darslik) // O‘zbekiston respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi. Guvohnoma № DGU 36059. 08.04.2024 y.

15. Aslonov M.M. BXS R hukumatining madaniyat va maorif sohalariga e’tibori va “Buxoro maorif uyi”ning rivojlanishdagi o‘rni // (zenodo.org) Current approaches and new research in modern sciences, International scientific-online conference. Poland. 2023. -P. 61-64.

16. Aslonov M.M. The Role Of Lutfulla Nazrullaev, Who Studied At The Theater Studio Of The “Bukhara Educational House” In Moscow, In The Golden Legacy Of Uzbek Theater // International Conference on “Research Integration on World of Semantics”. Canada. 2023.-P. 344-348.

17. Aslonov M.M. “Buxoro maorif uyining taraqqiyot genezisi va uning ta’lim sohasidagi islohotlari” // “Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века” xalqaro konferensiyasi. Qozog‘iston, Nur-Sulton. 2021-yil aprel. B. 70-72.

18. Aslonov M.M. Buxoro Xalq Respublikasining pedagogik xodimlar tayyorlash sohasidagi islohotlari // “Ijtimoiy sohani modernizatsiyalash kontekstida pedagogik ta’lim taraqqiyoti: muammo va istiqbollar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani, BDU, 2021 yil 28 may. B. 148-150.

19. Aslonov M.M. Buxoro maorifi uyining O‘zbekistonda ta’lim va madaniyatni rivojlanishdagi o‘rni // “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim

va innovatsiya uyg'unligi" Respublika 5-son ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi. -B. 342-349.

20. Aslonov M.M. "Buxoro maorif uyi"ning O'zbekistonda ta'lim va madaniyatni rivojlanishidagi o'rni // "Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni" mavzusidagi onlayn ilmiy anjuman. NamDU, 2021-yil 31-may.-B. 359-364.

21. Aslonov M.M. "Moskvadagi «Buxoro maorif uyi»ning tashkil etish jarayonida ijtimoiy-siyosiy vaziyat // "Tafakkur va talqin" respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy ajmani, BDU. 2021-yil, 27-may.-B.1004-1010.

22. Aslonov M.M. Buxoro jadidlari tomonidan tashkil etilgan "Ko'mak" tashkilotining yoshlarni o'qitishga oid islohotlari // "Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o'zlik" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to'plami, Buxoro. 2025-yil 12-mart. -B. 713-716.

23. Aslonov M.M. Buxoro jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ishlab chiqilgan Qoidalar (Ta'lim to'g'risidagi qonun) mazmun mohiyati va zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashuvi masalasi // "Mutafakkirlar va jadid ma'rifatparvarlarining tarbiya turlariga oid ta'limotlari hamda undan foydalanish mexanizmlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani . Toshkent. 2025. B. 68-71.